



USTOZ SHOGIRD AN‘ANALARIDA: FARRUX ZOKIROV
FENOMENI

Mamadjonov Samandar Sobirjon o‘g‘li

3821218@gmail.com

*O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san‘ati instituti
Vokal san‘ati: estrada xonandaligi ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san‘ati
instituti Estrada xonandaligi kafedrasi professori **Islamova Ruslana Ruslanovna***

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston xalq artisti, atoqli estrada xonandasi va pedagog Farrux Zokirovning 80 yilligiga bag‘ishlanadi. Maqolada san‘atkorning milliy o‘zbek estradasi rivojiga qo‘shgan hissasi, “Yalla” ansambli tarkibidagi yutuqlari, shuningdek, uning pedagogik faoliyati va yosh avlodini tarbiyalashdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Muallifning shaxsiy tajribasi asosida ustozning ijodiy maktabi xususiyatlari, uning o‘qitish metodikasi hamda insoniy fazilatlari yoritib beriladi. Maqola atoqli san‘atkor faoliyatining tarixiy va madaniy ahamiyatini asoslab berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Farrux Zokirov, milliy o‘zbek estradasi, pedagogik faoliyat, ijodiy maktab, “Yalla” ansambli, badiiy meros, sahna madaniyati, yosh avlod tarbiyasi, musiqiy ta‘lim, san‘atshunoslik tahlili.

Аннотация: Данная статья посвящена 80-летию Народного артиста Узбекистана, выдающегося эстрадного исполнителя и педагога Фарруха Закирова. В статье рассматривается вклад артиста в развитие национальной узбекской эстрады, его достижения в составе ансамбля Ялла, а также его педагогическая деятельность и роль в воспитании молодого поколения исполнителей. На основе личного опыта автора раскрываются особенности творческой школы мастера, его методика преподавания и



человеческие качества. Статья направлена на обоснование исторической и культурной значимости деятельности выдающегося артиста.

Ключевые слова: Фаррух Закиров, национальная узбекская эстрада, педагогическая деятельность, творческая школа, ансамбль Ялла, художественное наследие, сценическая культура, воспитание молодого поколения, музыкальное образование, искусствоведческий анализ.

Annotation: This article is dedicated to the 80th anniversary of the People's Artist of Uzbekistan, the outstanding pop singer and pedagogue Farrukh Zakirov. The article examines the artist's contribution to the development of the national Uzbek pop music, his achievements as a member of the ensemble "Yalla," as well as his pedagogical activity and role in educating the younger generation of performers. Based on the author's personal experience, the features of the master's creative school, his teaching methodology, and his human qualities are revealed. The article aims to substantiate the historical and cultural significance of the outstanding artist's activity.

Keywords: Farrukh Zakirov, national Uzbek pop music, pedagogical activity, creative school, "Yalla" ensemble, artistic heritage, stage culture, education of the younger generation, music education, art historical analysis.

2026-yil 16-aprel sanasi o'zbek milliy estrada san'ati tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu sanada O'zbekiston xalq artisti, milliy estrada maktabining asoschilaridan biri, betakror ijodkor va fidoiy pedagog Farrux Zokirov tavalludining 80 yilligi bilan sharaflidir. Uning ko'p yillik ijodiy faoliyati nafaqat sahna madaniyatini yuksaltirdi, balki butun bir avlod san'atkorlarining shakllanishiga mustahkam zamin yaratdi.



Farrux Karimovich Zokirov 1946-yil 16-aprel sanasida Toshkentda professional musiqachilar oilasida tugʻilgan. Otasi Oʻzbekiston SSR xalq artisti Karim Zokirov opera xonandasi (bariton) va Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston davlat opera va balet teatrining solisti boʻlgan. Onasi Shohista Saidova ham xonanda, “Muqimiy” nomidagi musiqali drama va komediya teatrining solisti boʻlgan. Uning ota-onasi Moskva konservatoriyasida oʻqiyotganda davrlarida tanishgan. Oilada besh oʻgʻil va bir qiz boʻlgan: ular Botir, Luiza, Naufal, Farruh, Jamshid, Ravshan Zokirovlar. Oiladagi badiiy muhit, ijodkorlik bolalarni yoshligidanoq musiqa bilan



oziqlantirgan. Shu tariqa Toshkentda Zokirovlar musiqa va badiiy sulolasi shakllandi. Farrux Karimovich Zokirov — oʻzbek va sovet xonandasi, bastakor va aktyor.

1976 yildan “Yalla” folklor-rok guruhiga asos soladi. Zokirov oltita Respublikaning xalq artisti, Oʻzbekiston Davlat mukofoti sohibi boʻlgan. 2002-yil may oyidan 2004-yil iyuliga qadar Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va sport



ishlari vazirining o‘rinbosari lavozimida faoliyat olib borgan. Farrux Zokirov — O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Ingushetiya Respublikalari xalq artisti hisoblanadi.

1970-yilda Moskva teleradio-qo‘mitasi tomonidan “Yosh ovoz – talantlarni izlaymiz” ko‘rik-tanlovi e‘lon qilindi. Bu tanlov yosh va iste‘dodli san’atkorlarni aniqlash, ularni sahnaga olib chiqish va milliy estrada rivojini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan edi. Tanlov e‘lon qilinishi bilan, mohir sozanda, aktyor va tashkilotchi German Rojkov tezkor choralar ko‘rib, yangi estrada jamoasi tuzishga kirishdi.

Ushbu guruh tarkibiga davrning iqtidorli yosh san’atkorlari jalb qilindi:

- Shahboz Nizomiddinov – xonanda va rubobchi
 - Bahodir Jo‘rayev – xonanda va bas-gitarachi
 - Sergey Avanesov – xonanda va gitarachi
 - Dmitriy Sirim – zarbli cholg‘ular ijrochisi
 - Farrux Zokirov – xonanda, doira va nay chaluvchi, gitarachi
 - Askar Falxulin – xonanda, pianinochi, sintezator va elektroorgan ijrochisi
 - Ravshan Zokirov – xonanda va gitarachi
 - Shamil Zokirov – xonanda va pianinochi, ansamblning musiqiy rahbari
- Ansamblni boshqarish va ijro dasturini tayyorlash ishlarini esa kompozitor va dirijyor Yevgeniy Shirayev hamda ovoz rejissyori Arkadiy Arkashevskiy olib bordi.

Guruh tuzilishi bilan birga, ularning asosiy maqsadi Vokal Cholg‘u Ansambli (VIA) yaratish edi. Buning uchun eng avvalo ijro dasturini shakllantirish muhim edi. Yosh san’atkorlar bu masalaga o‘ziga xos, ijodiy yondashuv bilan kirishdi va har bir qo‘shiqni milliy uslub va zamonaviylik uyg‘unligida ijro etishga harakat qildilar. Ansamblga nomi tanlash jarayonida ham jiddiy izlanishlar olib borildi. Nihoyat, mashhur kinorejissor Anatoliy Qobulovning taklifi bilan yangi jamoa “Yalla” nomi bilan faoliyat yurita boshladi.



“Yalla” ansambli tashkil etilganIga bir yil o‘tib, 1971-yil 9-fevralda ilk konsert dasturini tomoshabinlarga taqdim etdi. Shu kun bilan birga ular mashhurlikka erishish yo‘lida ilk qadamlarini qo‘ydilar. Ansamblning ijodi nafaqat Respublikamizda, balki xalqaro ko‘rik-tanlovlarda ham e‘tirofga sazovor bo‘ldi. Moskva televideniyesida ilk konsert berishlari esa ularning xalqaro sahnaga chiqishida muhim bosqichni bo‘ldi.

O‘sha davrdagi dasturga Farrux Zokirovning qayta ishlagan o‘zbek xalq qo‘shiqlari, bastakor Orif Toshmatov va yosh kompozitor Enmark Salixovning ijodiy ishlari tomoshabinlarning qalbini zabt etdi va ularning olqishlariga sazovor bo‘ldi. Ushbu dastur orqali “Yalla” nafaqat milliy estrada an‘analarini davom ettirdi, balki uni yangi, zamonaviy shaklda xalqaro maydonga olib chiqdi.

Ansamblning shakllanishida ularga yaqindan yordam bergan yana bir muhim shaxs – O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov edi. Botir Zokirov qo‘shiqlar tanlashda qolaversa omma oldida mashhur bo‘lishiga yaqindan yordam bergan shaxs hisoblanadi va bir vaqtning o‘zida ansamblda faoliyat olib borgan.

Zokirovlar oilasida turli tadbirlar, oilaviy konsertlar va mahalliy musiqiy namoyishlar muntazam bo‘lib o‘tgan. Bu jarayonlarda Farrux Zokirov o‘zining ilk sahna tajribalarini orttirib, turli cholg‘u va vokal uslublarini o‘zlashtirgan. Shu tariqa, u nafaqat milliy estrada maktabining kelajak vakili sifatida shakllangan, balki oilaviy musiqiy muhitda o‘zaro hamjihatlik va ijodiy uyg‘unlikni ham rivojlantirgan.

Ustozlik va shogirdlik maktabida ham buning tajribasi katta ahamiyatga ega bo‘ldi: Farrux Zokirov ansambldagi hamkasblari bilan ishlashda oilaviy musiqiy merosni uyg‘un tarzda tatbiq etgan.

Vaqt o‘tishi bilan Farrux Zokirov nafaqat sahnaning yorqin yulduzi, balki yosh iste‘dodlar uchun ma‘naviy tayanch va ustoz sifatida ham tanildi. Uning ijodiy tajribasi, sahna madaniyati va professional intizomi asta-sekin pedagogik faoliyatida o‘z ifodasini topdi.

Farrux Zokirov uchun ustozlik oddiy kasb emas, balki mas‘uliyatli ma‘naviy missiyadir. U dars jarayonlarida avvalo shaxs tarbiyasiga e‘tibor qaratadi. “San’atkor



avvalo inson bo'lishi kerak" degan tamoyil uning pedagogik qarashlarining asosi hisoblanadi. Talabadan faqat kuchli ovoz yoki texnik mahorat talab qilinmaydi — sahna madaniyati, intizom, matnni his qilish, tomoshabin bilan muloqot qilish san'ati ham birdek muhim deb takidlaydi.

Ustozning dars o'tish uslubi o'ziga xosdir: har bir talaba bilan individual ishlash, uning ovoz diapazoni, tembri va ichki imkoniyatlarini chuqur o'rganish orqali ijrochi sifatida shakllantirishga alohida e'tibor beradi. Mashg'ulotlar jarayonida milliylik va zamonaviylik uyg'unligini saqlash, xalq qo'shiqlarini zamonaviy talqinda ijro etish, lekin asl ruhiyatini yo'qotmaslik tamoyili doimo ustuvor bo'lib keladi.

Ko'p yillik sahna tajribasi tufayli u yosh xonandalarga nafaqat vokal texnikasini, balki sahnada o'zini tutish madaniyatini ham o'rgatadi. Yorug'lik ostida turish, mikrofon bilan ishlash, auditoriyani his qilish kabi jihatlar ham darsning ajralmas qismidir. Shu bois uning shogirdlari nafaqat ijrochi, balki mukammal sahna madaniyatiga ega san'atkor sifatida shakllanadi.

Bugungi kunda Farrux Zokirov yaratgan pedagogik maktab milliy estrada san'atining davomiyligini ta'minlayotgan muhim omillardan biridir. Uning saboqlari orqali shakllanayotgan yosh avlod o'zbek sahnasining ertangi kunini belgilamoqda.

Ustoz bilan bo'lgan ilk darsim hayotimdagi eng hayajonli lahzalardan biri sifatida yodimda qolgan. Farrux Zokirov kabi san'at afsonasi qarshisida turishning o'zi katta mas'uliyat va hayajon edi. Biroq o'sha darsdan boshlab men nafaqat san'at yo'lida, balki hayotiy qarashlarimda ham muhim saboqlar ola boshladim. Ustozning har bir so'zi, har bir mulohazasi men uchun katta maktab bo'ldi.



Birinchi mashgʻulotdayoq u sahna madaniyati va sahnada oʻzini tutish qoidalariga alohida eʼtibor qaratdi. “Sahna — bu muqaddas joy. Unda har bir qadam, har bir qarash masʼuliyat talab qiladi”, degan fikrlari hanuz qulogʻimda jaranglaydi. U tomoshabin bilan toʻgʻri ishlash, auditoriyani his qilish, nigoh va tana harakatlari orqali muloqot oʻrnatish sirlarini oʻzining boy tajribasiga tayangan holda oʻrgatdi. Sahna — faqat qoʻshiq aytiladigan joy emas, balki qalbdan qalbgga yoʻl topiladigan makon ekanini angladim.

Ijro jarayonida esa ustoz meni qoʻshiqni chuqurroq his qilishga undadi. U har bir soʻzning maʼnosini anglash, uning ichki magʻzini chaqish va avvalo oʻz qalbimga singdirish zarurligini taʼkidlardi. “Qoʻshiqni sen his qilmasang, tomoshabin hech qachon his qilmaydi”, degan nasihati ijrochilik faoliyatimda burilish yasadi. Har bir ibora, har bir ohangning ichki dramatzimini ochish, uni samimiyat bilan yetkazish – ustoz bergan eng katta saboqlardan biridir.

Shu tariqa, men uch yil davomida nafaqat vokal texnikamni takomillashtirdim, balki sahnaga boʻlgan munosabatim, sanʼatga boʻlgan



mas'uliyatim tubdan o'zgardi. Ustozning darslari menga san'atkorlik – bu iste'dod emas, balki doimiy izlanish, mehnat va ichki madaniyat ekanini anglatdi.

Xulosa qilib aytganda, Farrux Zokirovning 80 yillik hayot yo'li o'zbek milliy estrada san'ati tarixining muhim bir davrini qamrab oladi. U nafaqat sahnada betakror ijrochi sifatida, balki butun bir estetik maktab asoschisi, milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtira olgan ijodkor sifatida estrada musiqasi tarixida o'z o'rnini mustahkam egalladi. Uning Yalla ansambli orqali amalga oshirgan faoliyati milliy estrada san'atini xalqaro maydonga olib chiqdi balki O'zbekiston estrada musiqa madaniyatini dunyoga tanitdi.

Ammo buyuklik faqat sahnadagi yutuqlar bilan belgilanmaydi. Haqiqiy san'atkor – bu o'zidan keyingi avlodni tarbiyalay olgan, tajribasini saxovat bilan ulasha olgan shaxsdir. Farrux Zokirov ana shunday ustozdir. Uning pedagogik faoliyati davomida yuzlab yosh ijrochilarni professional yo'lga yo'naltirildi, sahna madaniyati va ijro mas'uliyatini chuqur anglagan san'atkorlar shakllanishida katta xissa qoshdi.

Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutida talaba sifatida men uch yil davomida ustozdan bevosita saboq olish baxtiga muyassar bo'ldim. Bu yillar davomida olingan bilim va malaka hayotiy tajribalar nafaqat ijrochilik faoliyatimda, balki shaxs sifatida kamol topishimda ham muhim o'rin tutdi.

Bugungi kunda Farrux Zokirovning ijodiy va pedagogik merosi milliy estrada san'atining barqaror rivojlanishini ta'minlayotgan mustahkam poydevordir. Uning ko'p yillik fidokorona mehnati, milliy madaniyatni yuksaltirish yo'lidagi xizmatlari va yosh avlod tarbiyasiga qo'shgan hissasi alohida e'tirofga loyiqdir. Shu bois, ustozning 80 yillik muborak yubileylari nafaqat bir san'atkorning tavallud sanasi, balki butun milliy estrada san'ati tarixidagi muhim voqeadir. Farrux Zokirov yaratgan ijro maktabi, u tarbiyalagan shogirdlar va boy ijodiy meros kelajak avlodlar uchun ibrat va ilhom manbai bo'lib ko'p yillar xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Farrux Zokirov. Intervyular va ijodiy suhbatlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi arxivi materiallari.
2. A. Jabborov — “O‘zbek Estrada San’ati (XX asr tarixiy ocherklar)” 2025.
3. Botir Zokirov hayoti va ijodiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami. – Toshkent: San’at nashriyoti.
4. Karimov, N. O‘zbek estrada san’ati tarixi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Rahmatullayev, A. Milliy estrada va zamonaviy ijro maktabi. – Toshkent: O‘zbekiston davlat konservatoriyasi nashri.
6. Islamova, R. “Osnovi shou-biznesa”, OTM uchun o‘quv qo‘llanma, T., 2015.
7. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi rasmiy materiallari va ma’lumotnomalari.
8. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA) rasmiy sayti materiallari.
9. Muallifning shaxsiy kuzatuvlari va 2023–2026-yillar davomida olib borilgan pedagogik mashg‘ulotlar asosidagi qaydlar.
10. Yalla ansambli faoliyatiga oid arxiv materiallari. – Toshkent: O‘zbekkonsert fondi.